“O‘zkimyosanoat” hamda “Dehqonobod kaliy zavodi” AJlarining RASMIY BAYONOTI

// 02.10.2022
https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/uzkimyosanoat-hamda-dehqonobod-kaliy-zavodi-ajlarining-rasmiy-bayonoti



Ijtimoiy tarmoqlar va bir qancha Telegram kanallarida tarqalgan, “Zavod omborlaridan chiqayotgan zahar artizan va buloqlarimizni ifloslantirmoqda” mazmunidagi murojaat yuzasidan quyidagilarni ma’lum qilamiz.

Video murojaat va suratlarda aks etgan holat haqiqatdan ham poliyetilen liniya montajidagi nuqson sababli bir necha oy oldin kuzatilgan. Holat zudlik bilan nazoratga olinib, ariq va jilg‘alar quvurdan sizgan shlam qoldiqlaridan (murojaatda zahar deb ko‘rsatilgan vaholanki ushbu shlam qoldiqlari tarkibida hech qanday zahar mavjud emas) tozalangan va uning suvlarga tushishining oldi olingan bo‘lib, noxush hodisa natijasida relyefga oqgan chiqindi uchun O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi hududida atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishning iqtisodiy mexanizmlarini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 202-sonli qarorning 5-bob 19, 20-bandlariga asosan BHM o‘n baravarida, 2 124 401 so‘m kompensatsiya hisoblangan.

Yuqorida ta’kidlangan video murojaat 29.09.2022-yil soat 17:27 da ijtimoiy tarmoqlarga joylangandan so‘ng ham jamiyat mas’ul xodimlari shu kunning o‘zida joyiga chiqqan holda vaziyatni o‘rganishdi.

O‘rganishlarda jamiyatga tegishli uchastkalardagi quvurlarda shlam qoldiqlarining sizishi bilan bog‘liq holatlar aniqlanmadi.

Xitoyning CITIC kompaniyasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi qurilish me’yorlari qoidalariga muvofiq qurilgan 1-bosqich doirasidagi shlam yig‘gich havzasi to‘lganligi uchun 2022-yil iyul oyida ishlatilishi to‘xtatilgan. Hozirda 1-bosqichdan chiqadigan shlam qoldiqlari 2-bosqich doirasida qurilgan shlam yig‘gich havzasiga yo‘naltirilmoqda.

Shlam yig‘ish havzalaridan texnologik suvlar sizishini nazorat qilish maqsadida kuzatuv quduqlari burg‘ulangan bo‘lib, jamiyat tomonidan kuzatuv quduqlarida to‘plangan sizot suvlarining kimyoviy ekoanalitik laboratoriya tahlillari monitoringi muntazam olib borilishi yo‘lga qo‘yilgan.

Hozirda 1-bosqich doirasidagi shlam yig‘gich havzasi to‘lganligi uchun respublikadagi potensial olim va mutaxassislar bilan birgalikda undagi chiqindini qayta ishlash orqali qo‘shimcha qiymatga ega mahsulot ishlab chiqarish yo‘nalishida amaliy ishlar olib borilmoqda.

Shu bilan birga Beshbuloq qishlog‘i faollari bilan uchrashuv chog‘ida bu yilgi qirg‘oqchilik oqibatida qishloqning chorva va lalmi ekinlariga salbiy ta’sirini inobatga olib, ularning iltimosiga asosan chorva va ekinlarni sug‘orish maqsadida qishloqqa qo‘shimcha artizan burg‘i quduqlari qazishga kelishilgan. Hozirda jamiyat tomonidan artizan quduqlarni burg‘ilash maqsadida kuduk kazish ishlarini bajaruvchi tashkilotni tanlash bo‘yicha amaliy ishlar boshlangan.

Shu o‘rinda, “O‘zkimyosanoat” AJ ochiqlik va shaffoflik tarafdori ekanligini hamda sohaga oid tezkor, aniq va ishonchli ma’lumotlarga ega bo‘lish uchun Jamiyat Matbuot xizmatiga murojaat qilishingiz mumkinligini eslatib o‘tamiz.




Uzkimyosanoat
uzkimyosanoat
uzkimyosanoat.uz
(+99878) 140-74-26



“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati